

PARANTEZ BIRLIKLARNING BADIY MATNDAGI KOMPOZITSION-STRUKTUR SHAKLI

Abdumalikova Dilfuza Abduraufovna

JDPU O‘zbek tilini oqitish metodikasi kafedrasida oqituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada parantez birliklar, kirish so‘z va kiritmalardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish, yozma nutqda foydalanayotganda imloviy va punktuatsion belgilarga alohida e‘tibor berish lozimligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Parantez birliklar, kirish so‘z, kiritma, kiritma gap;

Inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo‘lmish ona tili fani maktabda yetakchi o‘quv fanlaridan biri sanaladi. Zero, ona tili millat tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi.

Ekspressiv sintaksis bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda paranteza termini ostida o‘rganilayotgan hodisa ba’zi jihatlari bilan partsellyatsiyaga o‘xshab ketadi. Har ikki hodisa ham badiiy adabiyotda yozuvchining muayyan maqsadi talabiga ko‘ra reallashadi. Har ikki hodisa ham grafik jihatdan “bo‘laklangan” holda ifodalanadi. Har ikki hodisada ham aloqador qism asosiy qismdan keyin o‘rinlashadi. Kiritmalarning lingvistik mohiyati haqida tilshunos I.Toshaliyev o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida quyidagi fikrlarni ilgari surgan: “Kiritmalar grammatik jihatdan shakllangan tayyor gap strukturasi kiritilib, gapdagi grammatik aloqani ham, tugal intonatsiyani ham uzib qo‘yadi, uni murakkablashtiradi. Kiritma ifodalayotgan ma’no ko‘pincha asosiy gap mazmuniga nisbatan boshqa yo‘nalishda, yo‘l-yo‘lakay kiritilgan ikkinchi darajali izoh, qo‘shimcha ma’lumot tarzida bo‘ladi. Bu og‘zaki nutqda asosiy gap mazmunini, gapning kiritmadan oldingi qismi bilan keyingi qismini birgalikda tushunilishga, oz bo‘lsa ham, halaqit beradi.” Lekin shunga qaramay, badiiy matnda bu hodisa fikr anglanishiga “halaqit” berish emas, aksincha, yozuvchining badiiy niyatini qulay anglash imkoniyatini yaratishi bilan alohida ahamiyatga egaligi mutaxassislar tomonidan ta’kidlanmoqda: “Paranteza badiiy asarda muallif va qahramonlar nutqida kelishi mumkin. Aytilmoqchi bo‘lgan fikrga aloqador izohlar, qo‘shimcha ma’lumotlar qavs ichida berib boriladi. Intonatsion, grafik va sintaktik jihatdan mustaqil bo‘lgan kiritma konstruktsiyalar asarda nutqning to‘la anglanishi uchun zaruriy informatsiyalarni berish, tinglovchi yoki kitobxon uchun noaniq bo‘lgan o‘rinlarga aniqlik kiritish, izohlash, eslatish, his-tuyg‘ularni ifodalash kabi maqsadlarda

qo'llaniladi. Asar qahramoni bilan kitobxon o'rtasida o'ziga xos «sirdoshlik» illyuziyasini yaratadi. Qahramon «aytmasa bo'lmaydigan» gapini qavs ichida berish orqali go'yo kitobxonning qulog'iga pichirlayotganday muhit yaratadi. Bu esa kitobxonning qahramonga nisbatan ishonchini orttiradi va yaqinlashtiradi. Paranteza funksiyasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ayrimlari kitobxonni «parda ortidagi sir»dan ogoh qilishga xoslangan bo'lsa, ayrimlari yangi informatsiyaga tayyorlash vazifasini bajaradi.. Zotan, kirishlarning ham, kiritmalarning ham gapdagi pozitsion-struktural mohiyati shundan iboratki, ularning har ikkisi ham asosiy gap tarkibiga tashqaridan kiritiladi.

Kirish va kiritmalarni umumlashtiruvchi nom sifatida turli tilshunosliklarda “paranteza // parenteza”dan boshqa “vstavka” (kiritma), “vneseniye” (kirgizma), “vklineniye” (yorib kirgizma, suqib kirgizma) terminlardan ham foydalanilgan.”

Parantezada ham partsellyatsiyada bo'lgani kabi gap asos va unga aloqador qism sifatida “bo'laklangan” bo'ladi. Lekin partsellyatsiya departsellyatsiyalanganda hech qanday o'zgarishsiz bitta yaxlit gap o'rtaga chiqishi mumkin. Parantezada esa qavs ichida keltirilgan gap o'zicha mustaqil holda shakllanadi. Masalan: Bir kuni darsdan qaytayotib “marshrutka” bekatida Matlubani ko'rib qoldim. (U mendan bir kurs quyi o'qirdi.) (E.A'zam. –B. 19) Ushbu misolni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, paranteza hech qanday o'zgarishsiz asosiy gap tarkibiga kira olmaydi. U asosdagi to'ldiruvchi bilan bog'liq qo'shimcha informatsiyani bildirish uchun qo'llanilgan. Quyidagi misollarda ham ayni holatni kuzatamiz. Ya'ni paranteza asosdagi qaysidir bo'lak bilan bog'liq qo'shimcha infomatsiyani bildirishga xoslangan: Boshqalar... Akbarov qani? (Topgan gapimni qarang!). (E.A'zam. –B.19) Men uning yuzini dadil kaftlarim orasiga olib, ko'ziga puflay boshladim va... shayton yo'ldan ozdirdimi... labimni labimga bosibman! (Shu vaziyatda yigit kishi boshqacha yo'l tutishiga ishonmayman.) (E.A'zam. –B.31) Aytishicha, oilada atigi ikki farzand ekanlar – bittagina ukasi bor ekan (demak, seni urolmaydi, akasi bo'lganda boshqa gap edi!); o'zi yolg'iz qiz, erka qiz ekan – “Adam nima so'rasam olib beradilar” (demak, sen ham olib berishing, qozon-tovoqni o'zing qilishing kerak!); adasi asfal't zavodining direktori ekan (demak, asfal't kerak bo'lsa – marhamat!); buni qarang, mashinalari ham bor ekan – “Yap-yangigina turibdi, hech kim haydamaydi, adam “Dvijeniye katta”, deb qo'rqadilar” (demak, bemalol, asfal'tlarning titig'ini chiqarib bemalol minaverasan!); darvozaxonalraida esa, uylarin va o'zlarini qo'riqlaydigan kattakon bir olaparlari bor ekan (demak, u ham kirgan-chiqqanga tarjimai holini aytib beraveradi!)... (E.A'zam. – B.33) – Siz ham bironta aspirant bilan yurasizmi? (Mayli, haqiqatning shunday qattiq-quruq, lekin zinhor-bazinhor ochiq bo'lgani yaxshi.) (E.A'zam. –B.63)

Shunday qilib, gap sathida nafaqat gap bo'laklari, hatto undalmalar, kiritmalar ham uning tarkibidan ajratib olinishi mumkin. Ular asosdan sintaktik jihatdan

ajratilgani bilan semantik nuqtai nazardan zich bog‘langan bo‘ladi. Ular o‘rtasida payt, sabab, natija, miqdor, daraja, o‘rin, o‘xshatish, qiyos kabi semantik munosabatlar aniq anglashilib turadi. Xullas, partsellyatsiya va parantezalar o‘zaro o‘xshash va ayni paytda butunlay bir-biridan farqlanuvchi sintaktik hodisalardir. Ularning shakllanish tarzi turlicha bo‘lgani bilan “yashash formasi” va o‘rni bir xildir. Ya’ni, har ikki hodisa ham gapdan yirik kontekstda, badiiy matnda ekspressiv maqsadga xizmat qiladi. Parantezalar uchun qavs va tire punktuatsion belgilari xoslangan bo‘lsa, partsellyatsiya uchun nuqta, uch nuqta, undov belgisi, so‘roq belgisi, so‘roq//undov, undov//so‘roq belgisi turg‘unlashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Toshaliyev I. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida kiritma konstruktsiyalar. Filol. fanlari kand. ...dis. –Toshkent, 1972. –B.47.
- 2.Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Ko‘rsatilgan asar.–B.67.
- 3.Jamoliddinova D. Badiiy nutqda parantez (kirish va kiritma) birliklarning grammatik va lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fanlari nomz. avtoref. –Toshkent, 2009. –B.8.
- 4.Erkin A’zam Kechikayotgan odam. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2002. 448 b.